

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/.30.12.2019.Fil.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ISRAILOVA SAYERA TASHPULAT QIZI

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI ERTAK DUSKURSIDA “SINOV”
KONSEPTI VERBALLASHUVINING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent– 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Israilova Sayera Tashpulat qizi

Ingliz va o'zbek tillari ertak duskursida "sinov" konsepti
verballashuvining lingvomadaniy xususiyatlari.....3

Исраилова Сайера Ташпулат кизи

Лингвокультурологические особенности вербализации концепта
«испытание» в сказочном дискурсе английского и узбекского
языков..... 27

Israilova Sayera Tashpulat kizi

Linguocultural features of verbalization of the concept of "Test" in
English and Uzbek fairy tale duskurs
.....52

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
The list of published works58

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/.30.12.2019.Fil.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ISRAILOVA SAYERA TASHPULOT QIZI

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI ERTAK DUSKURSIDA “SINOV”
KONSEPTI VERBALLASHUVINING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

TOSHKENT - 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2019.2.PhD/Fil858 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.uzswlu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim tarmog'ining(www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

O'sarov Ibrohimjon Ko'rpashayevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Djumabayeva Jamila Sharipovna
filologiya fanlari doktori, professor

Shamsematova Barno Rixsivayevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning «___» _____ 2023 yil soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri Farobiy ko'chasi, 400-uy. Tel.: (99871) 246-08-62; (99871) 227-10-59; faks: (99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri Farobiy ko'chasi, 400-uy. Tel.: (99871) 246-08-62.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «___» _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi)

A.G.Sheremetyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol. f.d., professor

N.E.Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.f.d.(PhD), dotsent

I.A.Siddiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH

(Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab jonli nutq nazariyasi, ya'ni til va nutq tizimidagi nutqiy hodisalarga bo'lgan e'tibor kuchaydi va bu jarayon hozirgi kunda ham davom etmoqda. Til va nutq tizimidagi nutqiy hodisalarning o'ziga xos o'rni ertak, rivoyat, mif, afsona kabi xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq janrlar taraqqiyotini ta'minlab berdi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda ertak, rivoyat, mif, afsona kabi xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq janrlarga nisbatan yangicha yondashuvlar, millatlar urf-odatlarining o'ziga xosligi, xalq ertaklari konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlari tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida bugungi kunda nutqiy hodisalarni o'rganish bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda xalqning mentalitetini namoyon etadigan, lingvomadaniy hamjamiyat qadriyatlari ko'lamini aks ettiruvchi va shakllantiruvchi, shuningdek, ma'lum bir etnos madaniyatining barcha xususiyatlarini o'zida mujassam qilgan janrlar orasida ertaklar tadqiqi alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan nutqiy hodisalar tadqiqida sehrli ertaklarning lingvistik, ulardagi til vositalarining leksik-semantik, stilistik xususiyatlari, ayniqsa, sehrli ertaklar mazmunida "sehr", "sinov-shart" konsepti kabilarning verbal va noverbal vositalar orqali namoyon bo'lishini o'rganish zaruriyati mavjud.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda chet tillarini o'rganishga bo'lgan e'tiborning oshishi olib borilayotgan tadqiqotlarda o'zbek tilining lisoniy imkoniyatlarini to'laqonli ochib berish, til va madaniyat munosabatlari, ona tilimizni qardosh bo'lmagan tillar bilan qiyoslab - chog'ishtirish va lingvomadaniy xususiyatlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda til va nutq tizimidagi nutqiy hodisalar tadqiqida ingliz va o'zbek tillaridagi ertaklar janrida sehrli ertaklarning leksik, semantik, lingvomadaniy xususiyatlarini o'rgangan holda ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'zaro bog'lab tadqiq qilish hamda olingan natijalarni chet tilini o'qitish metodikasiga tatbiq etish, xorijiy tilni mukammal o'zlashtirishga zamin yaratish kabi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi 637-son "Ta'lim to'g'risida", 2019 yil 29 oktyabrdagi 576-son "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2012 yil 10 dekabrda PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha

qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 11 avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 31 dekabrda 824-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek folklorshunosligi B.Jumaniyozov, J.Eshonqulov, Sh.Shomusarov, T.Rahmonov, O.Qayumov, A.Tilavov, D.Fayzieva va boshqa olimlar tadqiqotlarida turli aspektlarda o'rganilgan¹. Ertak janri genezisi, tasnifi va badiiyati B.Karimov, M.Afzalov, G'.Jalolov, K.Imomov, X.Egamov, M.Jo'raev, J.Yusupov, T.Rahmonov, Q.Beknazarov, S.Jumaeva, Z.Usmonova, N.Do'sto'jaeva, M.Sodiqova, N.Qodirov, Z.Rasulova, M.Jo'raeva tadqiqotlarida tahlil qilingan².

¹ Jumaniyozov B.M. O'zbek xalq eposida yalmog'iz obrazi: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1996 – 24 b.; Eshonqulov J.S. O'zbek folklorida dev obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1996 – 26 b.; Shomusarov Sh. Arab va o'zbek folklori tarixiy-qiyyosiy tahlili: Filol. fan. d-ri. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1997 – 24 b.; Rahmonov T.L. Qadimgi miflar o'zbek folklori epik motivlarining o'zagi sifatida: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1997 – 24 b.; Qayumov O.S. O'zbek folklorida pari obrazi (genezisi va badiiyati): Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1999. – 24 b.; Tilavov A. O'zbek xalq dostonlaridagi ot obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – 24 b.; Fayziyeva D. O'zbek folklorida ilon obrazi (genezisi va badiiyati): Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – 24 b.

² B. Karimov. O'zbek xalq ertaklarining ba'zi bir xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1995. – № 5-6. – B.57-62; Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: Fan, 1964. – 68 b.; Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. – Toshkent: Fan, 1976– 156 b.; Jalolov G. Uzbekskiy narodnyy skazochnyy epos. – Toshkent: Fan, 1980. – 271 c.; Imomov K. O'zbek xalq satirik ertaklari. – Toshkent: Fan, 1974 – 156 b.; Imomov K. O'zbek xalq ertaklarining tarixiy asoslariga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – 1982. – № 1. – B.36-41.; Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 252 b.; Egamov X. Sovet Sharqi turkiy xalqlari ertakchilik an'analari aloqalari tarixidan ocherklar. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – 289 b.; Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida «sehrli» raqamlar. – Toshkent: Fan, 1991. – 152 b.; Yusupov J. Xorazm ertagi va hayot haqiqati. – Toshkent: Fan, 1997. – 127 b.; Yusupov J. Xorazm ertaklari poetikasi. – Urganch: UrDU noshirlik bo'limi, 2005. – 206 b.; Beknazarov Q. O'zbek xalq maishiy ertaklari (o'rganilishi, tasnifi, poetikasi): Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1993 – 26 b.; Jumaeva S.CH. Hayvonlar haqidagi ertaklarning genetik asoslari va spetsifikasi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1996 – 26 b.; Usmonova Z. O'zbek ertak-novellalarining o'ziga xos xususiyati va badiiyati: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1999 – 24 b.; Do'sto'jaeva N. O'zbek sehrli ertaklarining struktural tahlili: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1999 – 24 b.; Sodiqova M.A. O'gay qiz tipidagi turkum ertaklarning spetsifikasi, genezisi va badiiyati: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2003 – 24 b.; Qodirov N. O'zbek sehrli ertaklarida zamon va makon talqini: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2004 – 26 b.; Rasulova Z.J. O'zbek xalq sehrli ertaklarida «g'aroyib predmetlar» (spetsifikasi, genezisi va badiiyati): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2009 – 24 b.; Jo'rayeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyati: Filolog. fan. d-ri diss. ... –Toshkent, 2017. – 240 b.;

Rus tilshunosligida E.M. Meletinskiy, V.Ya. Propp, F.I. Buslaev, A.N. Pipin, D.S. Lixachev, E.V. Pomeranseva, E.Yu. Laskavseva, D.Nagishkin, T.V. Volkodav, K.E. Korepova, N.Roshiyanu, E.V.Shabanova, S.V. Shevchuk, A.V. Bakanova, T.V. Buraeva, L.V. Epoeva kabi olimlar ertakning mustaqil adabiy janr sifatida shakllanishini ilmiy tadqiq qilganlar³.

Ertak janrining xususiyatlari A.Dendes, P.Tolkien, A.Dandesom, Levi-Stross, A.Levorato, Dj.Frezer, T. Deklerk, P. Lendvai va boshqa xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida muhokama qilingan⁴. Ertak tushunchasi va ertak janri tadqiqi bilan bog'liq bir qator izlanishlar mavjud, ingliz va o'zbek tillaridagi sehrli ertak konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №I-245/11 «Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar» ilmiy loyihasining «Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek xalq ertaklarida “sinov-shart” konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Kunnazarova SH.M. Qoraqalpog' xalq ertaklarining leksik-semantik va lingvomadaniy taxlili: Filolog. fan. b. fals. d-ri diss. ... avtoref. –Toshkent, 2021. – 52 b.

³ Мелетинский Е.М. Зарубежные исследования по семиотике фольклора. – М., 1985. – 76 с.; Пропп В.Я. Морфология сказки. – М., 1969. – 70 с.; Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Электрон. текстовые дан. – Режим доступа: hogwarts.ru/library/texts/skazki.txt.html; Пропп В.Я. Трансформации волшебных сказок // Русская волшебная сказка. – М., 1992. – 120 с.; Буслаев Ф.И. Исторические очерки русской народной словесности и искусства. – М., 1978. – 150 с.; Пыпин А.Н. История русской литературы. – М.: СПб., 1893. Т. 1. – 289 с.; Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. – М., 1979. – 90 с.; Померанцева Э.В. Некоторые особенности русской пореформенной сказки. – М., 1956. – 153 с.; Ласкавцева Е.Ю. Лингвокультурологические характеристики русской и немецкой народной сказки: Дис. ... канд. филол. наук. –Краснодар, 2001. –174 с.; Нагишкин Д. Сказка и жизнь. Письма о сказке. – М., 1957. –120 с.; Волкодав Т.В. Структурно-типологические и лексико-семантические параметры литературной сказки Дж. Роулинг и ресурсы их передачи на русский и немецкий языки: Дис.... канд. филол. наук. –Краснодар, 2006. – 198 с.; Корепова К.Е. Волшебный мир / Русская волшебная сказка: Антология. –М., 1992. –189 с.; Рошияну Н. Традиционные формулы сказки. – М., 1974. –140 с.; Шабанова Е.В. Семантика и функции языковых средств выражения модальных категорий приказа, просьбы, совета в тексте французской народной сказки: Дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2000. – 130 с.; Шевчук С.В. Семантико-синтаксическая структура сложноподчинённых предложений с придаточными временными в украинской народной сказке: Дис. ... канд. филол. наук. – Киев, 1990. – 156 с.; Баканова А.В. Особенности языка испанских народных сказок: Дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2006. – 250 с.; Бураева Т.В. Язык калмыцких народных сказок (на материале «Калмыцких сказок» Г. И. Рамstedта): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Элиста, 2006. – 24 с.; Эпоева Л.В. Лингвокультурологические и когнитивные аспекты изучения языка волшебной сказки (на материале английского и русского языков): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – 21 с.

⁴ Dundes, A. On game morphology: a study of the structure of non-verbal folklore [Text] / A. Dundes // Analytic essays in folklore. – The Hague, 1979. –P. 80-89.; Levi-Strauss, C. Structure and form: reflections on a work by Vladimir Propp [Text] / C. Levi-Strauss // Structural Anthropology. Un-ty of Chicago Press, 1983. –P. 115-145.; Levorato, A. Language and Gender in the Fairy Tale Tradition: A Linguistic Analysis of Old and New Story-telling [Text] / A. Levorato. – Hardcover: Palgrave Macmillan, 2003. –248 p.; Declerck, T., Lendvai, P. Linguistic and Semantic Representation of the Thompson's Motif-Index of Folk-Literature [Text] / T. Declerck, P. Lendvai // S. Gradmann, F. Borri, C. Meghini, H. Schuldt (eds.) Research and Advanced Technology for Digital Libraries. International Conference on Theory and Practice of Digital Libraries, TPD (September 26-28, 2011), Proceedings. – Berlin: Germany. – P. 151-158.; Tolkien J.R.R. Tree and Leaf. Including the Poem of Mythopoeia. L., 2001. 55 p.

tilshunoslikda xalq ertaklarini o'rganishning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillaridagi sehrli ertaklar janrining stilistik xususiyatlarini tadqiq qilish;

ingliz va o'zbek tillari sehrli ertaklardagi leksik-semantik vositalarni tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillari sehrli ertaklarda "sinov-shart" konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillari sehrli ertaklaridagi "sinov-shart" konsepti tanlangan.

Tadqiqot predmetini ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi "sinov-shart" konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada quyidagi tadqiq va tahlil usullariga murojat qilindi: qiyosiy-chog'ishtirma, deskriptiv, leksik-semantik, stilistik va konseptual tahlil usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ertakning janr hamda uslubiy xususiyatlari, ertak va boshqa adabiy janrlar o'rtasidagi farq, sehrli ertaklarning xalq, kundalik, hayvonot, sarguzasht, tarixiy va adabiy kabi turlari, ularning xalqchil uslubda yaratilishi, turli stilistik vositalarga ega bo'lishi kabi stilistik va milliy mentalitetni namoyon etishi, xalqning hayot turmush tarzini aks ettirishi kabi lingvomadaniy xususiyatlari dalillangan;

ingliz va o'zbek tillarida sehrli ertaklarning matni shakllantiruvchi tarkibiy qismlari, ertaklar tilida so'z yasash va so'z o'ynini hosil qilish usullari, prefiks, suffiks va umumiy so'z boyligini shakllantirishning juft, takror usullari, g'ayrioddiy atqli nomlar sehrli ertaklardagi obrazlarning xususiyatlarini aks ettirishi kabi leksik-semantik xususiyatlari asoslangan;

ingliz va o'zbek tillari sehrli ertaklaridagi "sinov-shart" konseptining sinovchi va sinaluvchi toifalarga asoslanishi, bunda sinaluvchi bosh qahramon, sinovchi esa salbiy yoki ijobiy obraz bo'lishi, "sinov" manosi esa sinovchi hamda sinaluvchi shaxsning ishtirokida sinash obyekti orqali amalga oshirilishi, bunda sinaluvchi qahramon g'olib bo'lishi va o'z maqsadi bo'lgan taxt, boylik yoxud sevgilisiga erishishi kabi leksik-semantik jihatlari isbotlangan;

ingliz va o'zbek sehrli ertaklarida "sehr" konseptining sehrgar, sehrgarlik buyumlari leksik-tematik guruhlari tasnifi hamda ingliz tilidagi sehrli ertaklarda ko'proq uy-joy sharoitini, flora va faunani bildiruvchi milliy o'ziga xos birliklarning, o'zbek tilidagi sehrli ertaklarda esa ko'proq kiyim-kechakni, oziq-ovqatni bildiruvchi milliy o'ziga xos birliklarning mavjudligi kabi lingvomadaniy xususiyatlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillaridagi ertak konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlarining ochib berilishi keyingi tadqiqotlarga manba sifatida xizmat qilishi uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi ertaklarning tipologik va lingvokulturologik xususiyatlari isbotlangan, ertaklarning arxetipik maydoni va semantik parametrlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar, usullar, nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, amaliy misollar va tahlillar faktik-analitik til materiallariga tayanilgani, ishda zamonaviy tadqiq usullaridan foydalanganligi, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, O'zR OAK ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ingliz va o'zbek tillari adabiy me'yorlari, fonetikasi, leksikologiyasi, grammatikasi, tarjimashunosligi bo'yicha nazariy manba, darslik, o'quv qo'llanmalarni yaratishda xizmat qilishi, ingliz tili badiiy matnlarining o'zbek tiliga bevosita hamda bilvosita tarjimalarini takomillashtirishda, turli tizimli tillar misolida konseptlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etishda manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallari va xulosalaridan lingvistika, leksikologiya, leksikografiya, tarjima nazariyasi va amaliyoti, stilistika, nutq madaniyati, lingvokulturologiya kabi (tanlov) fanlarni o'qishda, seminar mashg'ulotlarini ishlab chiqishda, darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratishda hamda turli metodik tavsiyanomalar tuzishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillari sehrli ertaklarida "sinov-shart" konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ertakning janr hamda uslubiy xususiyatlari, ertak va boshqa adabiy janrlar o'rtasidagi farq, sehrli ertaklarning xalq, kundalik, hayvonot, sarguzasht, tarixiy va adabiy kabi turlari, ularning xalqchil uslubda yaratilishi, turli stilistik vositalarga ega bo'lishi kabi stilistik va milliy mentalitetni namoyon etishi, xalqning hayot turmush tarzini aks ettirishi kabi lingvomadaniy xususiyatlariga oid xulosalardan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan Erasmus+ dasturining Project N598340-EPP-12018-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China (UNICAC) loyhasida foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 3 iyundagi 04/44-2796-son ma'lumotnomasi). Natijada badiiy matnlar katalog va qo'llanmalarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillarida sehrli ertaklarning matni shakllantiruvchi tarkibiy qismlari, ertaklar tilida so'z yasash va so'z o'ynini hosil qilish usullari, prefiks, suffiks va umumiy so'z boyligini shakllantirishning juft, takror usullari, g'ayrioddiy atoqli nomlar sehrli ertaklardagi obrazlarning xususiyatlarini aks ettirishi kabi leksik-semantik xususiyatlariga oid xulosalardan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida 2017-2019 yillarda bajarilgan PZ-

201709134-sonli “Filologiya yo‘nalishi bo‘yicha ingliz tilini o‘rganish baholash sifatining shakl va tamoyillariga zamonaviy yondashuv” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021 yil 3 iyundagi 04/11-2798-son ma‘lumotnomasi). Natijada taqdim etilgan materiallar chet tilini o‘rganishda intralingvistik va ekstralingvistik omillar ta‘sirida diskurs va stilistik vositalarni qo‘llanish usullarining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda asos bo‘lgan;

ingliz va o‘zbek tillari sehrli ertaklaridagi “sinov-shart” konseptining sinovchi va sinaluvchi toifalarga asoslanishi, bunda sinaluvchi bosh qahramon, sinovchi esa salbiy yoki ijobiy obraz bo‘lishi, “sinov” manosi esa sinovchi hamda sinaluvchi shaxsning ishtirokida sinash obyekti orqali amalga oshirilishi, bunda sinaluvchi qahramon g‘olib bo‘lishi va o‘z maqsadi bo‘lgan taxt, boylik yoxud sevgilisiga erishishi kabi leksik-semantik jihatlariga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018 yillarda bajarilgan Erasmus+ dasturining 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqoralashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2021 yil 18 iyundagi 1316/30-02-01-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘qituvchilarning lingvistik va kommunikativlik qobiliyatini oshirish, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjamashunoslik sohalaridagi bilmini oshirish hamda ta‘lim tizimi jarayonini mustahkamlash va xalqoralashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishga erishilgan;

ingliz va o‘zbek sehrli ertaklarida “sehr” konseptining sehrgar, sehrgarlik buyumlari leksik-tematik guruhlarini tasnifi hamda ingliz tilidagi sehrli ertaklarda ko‘proq uy-joy sharoitini, flora va faunani bildiruvchi milliy o‘ziga xos birliklarning, o‘zbek tilidagi sehrli ertaklarda esa ko‘proq kiyim-kechakni, oziq-ovqatni bildiruvchi milliy o‘ziga xos birliklarning mavjudligi kabi lingvomadaniy xususiyatlariga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2011-2014 yillarda bajarilgan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2021 yil 19 iyundagi 1321/30-02-01-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarning kommunikativ-bilim ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan katalog yaratilgan;

ingliz va o‘zbek sehrli ertaklarida “sehr” konseptining sehrgar, sehrgarlik buyumlari leksik-tematik guruhlarini tasnifi hamda ingliz tilidagi sehrli ertaklarda ko‘proq uy-joy sharoitini, flora va faunani bildiruvchi milliy o‘ziga xos birliklarning, o‘zbek tilidagi sehrli ertaklarda esa ko‘proq kiyim-kechakni, oziq-ovqatni bildiruvchi milliy o‘ziga xos birliklarning mavjudligi kabi lingvomadaniy xususiyatlariga oid xulosalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “Assalom O‘zbekiston”, “Ijod mahsuli”, “Ibratga yo‘g‘rilgan umr” va “Qalb gavhari” ko‘rsatuvlari senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi 2021 yil 3 iyundagi 01-14-947-son ma‘lumotnomasi). Natijada “O‘zbekiston” telekanalining “Assalom O‘zbekiston”, “Ijod mahsuli”,

“Ibratga yo‘g‘rilgan umr” va “Qalb gavhari” ko‘rsatuvlari senariylarini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta hamda xorijiy jurnallarda 4 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning asosiy hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobasiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertasiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Zamonaviy tilshunoslikda xalq ertaklarini o‘rganishning lingvokulturologik xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobida folklor tarixida ertakning mustaqil adabiy janr sifatida shakllanishi, ertak tushunchasi, ertak janrining lingvokulturologik xususiyatlari, sehrli ertak syujetini tashkil etuvchi formulalar, sehrgarlik ertaklarida vaqtning verballashuvi hamda ingliz va o‘zbek tilidagi ertaklarda personajlar tizimi masalalariga doir nazariy fikr-mulohazalar yoritilgan.

Ma’lumki, folklor asrlar mobaynida xalqlarni madaniyat zanjiri orqali bog‘lovchi ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Folklor butun yer yuzidagi jamiyatning mifologik hodisalari uchun o‘ziga xos filtrga aylanib, barcha uchun umumiy, universal, gumanistik jihatdan muhim va eng hayotiy syujetlarni yaratib beradi va unda doimiy rivojlanish, boyish va yangilanish jarayonlari amal qiladi. *“Folklor”* (ing. Folk–xalq; lore–bilim, donolik) atamasi fanga ingliz olimi U.J. Toms tomonidan 1846-yilda kiritilgan. Folklor – bu *xalq og‘zaki poetik ijodi*, ya’ni, xalq og‘zaki badiiy ijodining turli janrlarini o‘z ichiga olgan adabiy asarlar hisoblanadi⁵. O‘zbek adabiyotshunosligida *“folklor”* yoxud *“o‘zbek folklori”* atamalari Hodi Zarifning 1939-yilda chop etilgan *“O‘zbek folklori”* xrestomatiyasi bilan bog‘liqdir.

Ertak – xalq og‘zaki folklor ijodining asosiy janrlaridan biri, afsona, asosan, fantastikaga yo‘naltirilgan sehrli, sarguzasht yoki kundalik xarakterdagi prozaik adabiy asar⁶. Ertak va uning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish masalasi ilm-fanda hanuzgacha yetarlicha tadqiq etilmaganligi bois folklor sa’natining janri bo‘lgan ertak tasnifida adabiy me’yorlardan chetga chiqish kuzatiladi yoki me’yorlarda o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Tilshunos olimlar E.M. Meletinskiy⁷ va V.Ya. Propplarning⁸ ertakning sintagmatik va paradigmatic qonuniyatlari borasidagi tahlili bizga ertak motivlarining tuzilishi va o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga imkon beradi. Ertaklar har bir davrda yangi mazmun bilan boyitilib doimo zamon va makonga monand ahamiyat kasb etadi, ular orqali insoniyat tafakkuri qay tarzda shakllanib, rivojlanganligi o‘rganiladi hamda unda chuqur va yashirin ichki tuzilish mavjudligi kuzatiladi.

⁵ Introduction to Folkllore. London, 2008. P.7

⁶ Литературный энциклопедический словарь. –М., 1987, –383с.

⁷ Мелетинский Е. М. Зарубежные исследования по семиотике фольклора. – М., 1985. –170 с.

⁸ Пропп В.Я. Фольклор и действительность. –М., 1978. –216 с.

Ertak maxsus lingvistik vositalar orqali tasvirlanib, o'ziga xos meta tilga ega, ertak tili maxsus turg'un iboralar, klishelar va frazeologik birliklar bilan ajralib turadi. Ertak konsepti tilshunoslar tomonidan turlicha talqin etiladi. Jumladan, M.M. Jo'raeva tadqiqotida kognitiv tilshunoslikda "ertak" konseptiga, avvalo, insonlarning u haqidagi bilim va tajribalari aks etgan axborot manbasini ifodalovchi mental birlik deb qaragan. Kognitiv semantika nuqtai nazaridan ertakning ma'no tabiati va shakl munosabati o'rganilgan. Ertakka ham konsept, ham so'z sifatida yondashilib, ular orasidagi ma'no munosabati tahlil qilingan⁹.

Ertak dunyosini ingliz va o'zbek tillarida aks ettirishda farqli jihatlar kuzatiladi. Ingliz ertaklari tili sehrgarlarni boshqa ertak qahramonlari bilan almashtirish orqali tavsiflanadi, ko'pincha hayvonlar o'z rollarini o'ynaydilar. Ushbu uslub, jumladan, o'zbek ertaklari uchun ham xarakterlidir. Sehrgarlik ertaklarda vaqtning verballashuvi vujudga kelib unga to'rtinchi o'lchov sifatida qaraladi va vaqt qaytmas (anizotropik) birlik hisoblanadi. Vaqtning verbalizasiyasi ertak tilida odatda vaqt oralig'ini nomlovchi leksemalar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, o'zbek tilidagi ertaklarda *soniya, daqika, kun, oy, yil, lahza, on, vaqt, zamon*; ingliz tilidagi ertaklarda, *second, minute, hour, day, month, year, moment*.

G'arb va Sharq xalqlari ertaklarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu haqiqiy hayotda mavjud bo'lmagan sehrli, ilohiy xususiyatlarga ega ertak qahramonlaridir. Ingliz ertaklarida uchraydigan ertak qahramonlari o'zbek ertaklarida doim ham keng qo'llanilmaydi va hatto ba'zi personaj nomlari bu xalq ertaklari uchun butunlay yot. Bu ham ingliz ertaklarining o'ziga xos jihatlaridan biridir. O'zbek xalq ertaklarida personajlar tizimini xarakterlaydigan asosiy belgi bu ertaklarda hayvonlarning inson xislatlarini o'zida mujassamlashtirib, tilga kirishi, insonlarga xos hayot kechirishi, qo'yingki, inson qilgan barcha ishlarni namoyon etishidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Xalq ertaklari matnining leksik-semantik va stilistik tahlili"** deb nomlangan bo'lib, unda ertak matnini shakllantiruvchi tarkibiy qismlari, ertaklar tilida so'z yasash va so'z o'yini hosil qilishning alliterasiya, ritm, asindeton, polisindeton, inversiya, leksik-semantik takrorlar, anafora, epifora usullari, ertaklarda metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, oksimoron, antiteza kabi tasviriy vositalardan foydalanish jixatlari o'ziga xos qo'llanishlari tahlilga tortilgan.

Ertaklarda olamning metaforik ko'rinishi aks ettirilib turli tabiat hodisalari o'xshatish, qiyoslash usuli orqali tasvirlanadi. E.Yu. Laskavsevaning ta'kidlashicha, ertakning o'ziga xos tili yoki metatili mavjud bo'lib, u ertakning butun syujetini o'ziga xos tarzda tasvirlash imkonini yaratadi¹⁰. Ertak tili turli lingvistik vositalar, leksik-semantik hamda frazeologik birliklar, badiiy-stilistik bo'yoqlardan tashkil topib unda leksik boylik juda ham muhim sanaladi hamda aynan ertaklarda so'zlarning yasalishi ko'p hollarda *affiksasiya*, ya'ni qo'shimcha

⁹Jorayeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklarida modalik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyati: Filolog. Fan.d-ri diss.: –Toshkent, 2017. – 240 b.

¹⁰ Ласкавцева Е.Ю. Лингвокультурологические характеристики русской и немецкой народной сказки: Дис. ... канд. филол. наук. Краснодар, 2001.

qo'shish usuli orqali amalga oshiriladi. Bunda so'zga ham **suffiks** – ort qo'shimcha, ham **prefiks** – old qo'shimcha qo'shish, shu bilan birga, *kompozisiya* usulida qo'shma, takror hamda juft so'zlar hosil qilish orqali so'z yasaliishi holatlari ham kuzatiladi. Ushbu mulohazani amaliy asoslash maqsadida ertaklarda so'zlar prefiks, ya'ni so'zga old qo'shimcha qo'shish orqali hosil qilinganligini tahlil qildik:

*“On the bed was a princess, a young girl of fifteen or sixteen, whose **untarnished** beauty seemed to shine with an **unearthly** radiance. He approached in trembling adoration and fell on his knees before her. And so, as the spell had now been broken, the princess woke...”* (“*Sleeping Beauty*”)¹¹

Yuqoridagi misolda **untarnished** hamda **unearthly** so'zlaridagi **un-** prefiksi qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan yangi so'zni yasashda ishlatilgan (*tarnished* – *untarnished* / *xira* – *yorqin*, *betakror*; *earthly* – *unearthly* / *tabiiy-g'ayritabiiy*).

O'zbek tili ertaklarida: “— *Vo ajabo, bu qanday sir? — debdi-da, beixtiyor atrofiga qarab qo'yibdi. Quyosh botay deb qolgan ekan. Tezlik bilan qo'y-qo'zilarini oldiga solib, podsho saroyi tomonga haydabdi.*” (“*Kenja Botir*”)

“Kampir Zumrad degan o'gay qizini ko'rgani ko'zi yo'q, otgani o'qi yo'q ekan. U hadeb qizni urib, qarg'ab, ertadan kechgacha ishlatarkan, bechoraga birpas ham tinchlik bermas ekan.” (“*Zumrad va Qimmat*”)¹².

Ushbu parchada keltirilgan **beixtiyor** (*ixtiyorsiz*) hamda **bechora** (*chorasiz*) so'zlarida **be-** prefiksi biror narsaning aksini, biror sifatning teskarisiga egalikni yoxud shu sifatdan mahrumlikni ifodalaydi, masalan: **mazali-bemaza, odobli-beodob, ozor-beozor, tob-betob, foyda-befoyda, ma'ni/ma'no - bema'ni, hush-behush.**

Ingliz ertaklarida so'zlarga suffikslar qo'shilishi turli so'z turkumlari orqali inson qobiliyati, biror natija, harakat yoki holatni ifodalovchi so'zlarni yasashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, -able, -age, -ance, -ant, -en, -er/-or, -ery, -ess, -ful, -ing, -ion, -ness, -ment, -ous, -some.

-able - able to be/ do smth or having a certain quality / qila olish qobiliyatiga ega bo'lish yoki ma'lum sifatga ega bo'lgan ma'nosida N+(-able)=Adj. Masalan,

*“The king took the gift very graciously, and said he knew not what to give in return to more valuable and wonderful than the great turnip; so the soldier was forced to put it into a cart, and drag it home with him.”*¹³

-age - A result / natija V+(-age)=N *“When the time came for the marriage of the king's son to be held, both of the false sisters came and tried to ingratiate themselves so as to get a share of Cinderella's good fortune.”*¹⁴

-ance - An action or state/ harakat yoki holat V+(-ance)=N *“So saying, he set out and travelled till he came to a mountain, where three giants were sharing*

¹¹ G. Ronald Murphy, “The Owl, The Raven and The Dove” the religious meaning of the Grimms' Magic Fairy tales. Oxford University Press – 2000. p.139

¹² O'zbek xalq ertaklari. “O'qiyuchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi. –Toshkent, 2013. –35 b.

¹³ “The turnip” (Grimms' Fairy Tales. Printed by Blackie & Son Limited. London and Glasgow. P.87.

¹⁴ “The Complete Fairy Tales of Charles Perrault” trans. Neil Philip and Nicoletta Simborowski (New York: Clarion Books, 1933.

their inheritance; and as they saw him pass, they cried out and said, "Little men have sharp wits; he shall divide the inheritance between us."¹⁵

-ant - A person / shaxs ya'ni ot yasashda qo'llaniladi V+(-ant)=N "When she heard this she turned pale with rage and envy; and called to one of her servants and said, "Take Snow-drop away into the wide wood, that I may never see her more."¹⁶

Ingliz ertaklari tili leksik jihatdan affiksasiya usulida yasalgan so'zlarga boy bo'lib, bu orqali ertaklarda o'ziga xos tasvir uyg'unligi paydo bo'ladi. Ingliz tilidagi ertaklar tilini tahlil qilish jarayoni shuni ko'rsatdiki, so'zlarning affiksasiya (qo'shimcha qo'shish) usulida, juftlashish yoki kompozisiya (so'z qo'shish) usuli orqali yasalishida nutqning turli bo'laklari, jumladan, sodda hamda murakkab ot, sifat, fe'l, ravish hamda predloglar ishtirok etadi. Shu bilan birga, ingliz tilidagi affiksasiya usulining qo'llanilishi, bir tomondan, turli so'z turkumlari orqali ifodalanuvchi so'zlarning jozibadorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, matnlarda, jumladan, ertaklarda so'zlar qo'llanilishi tejamkorligi uchun muhim omildir ya'ni har bir suffiks chog'ishtirilayotgan har ikki tilda ham muayyan ma'no kasb etadi.

Tadqiqot davomida tahlillardan aniq bo'ldiki, ertak tilida so'zlarning hosil qilinishi, atoqli hamda turdosh personaj nomlarining yasalish usullarida personajlarning o'ziga xos nom va taxalluslari ertaklarda obrazni tavsiflash va tanib olish, fe'l-atvori va kasb-korini ochib berish funksiyasini bajarishi kuzatildi.

Personaj nomlarining yasalish usullari tasnifi

Sodda so'zlar orqali: Zumrad, Qimmat, Ayo, Egriboy, To'g'riboy, Ko'kcha, Chivinboy, Tulkivoy, Bo'rivoy, Olapar, Tohir, Zuhra, Alpomish. Bunda, asosan, turdosh ot va sifatlardan o'tgan so'zlar atoqli shaxs otlariga aylanadi va ko'p hollarda -cha, -boy, -oy, -voy, -jon, -xon kabi lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar orqali turdosh otdan atoqli shaxs oti hosil qilinadi: Tulkivoy, Bo'rivoy

Qo'shma so'zlar orqali: a) ot + ot: No'xatpolvon, Yalmog'iz kampir, Maston kampir, Ayiqpolvon, Ko'ktemir podsho, Qul Tarlon, Go'ro'g'lik

b) Ot + sifat: Qilichqora

c) Sifat + ot: Qizil dev, Sariq dev, Qizil qalpoqcha, Ozodachehra


d) Sifat + sifat: Ziyod botir, Kenja botir

e) Ot + fe'l: Muqbil Toshotar, Yulduzsana, Daryobog'lar, Kuntug'mish


¹⁵ "The King of the Golden Mountain" (Grimms' Fairy Tales. Printed by Blackie & Son Limited. London and Glasgow. P.103)

¹⁶ "Snow-drop" (Grimms' Fairy Tales. Printed by Blackie & Son Limited. London and Glasgow. P.78)

Ingliz ertaklarida soʻz oʻyini hosil qilinish darajasi




O'zbek ertaklarida so'z o'yini hosil qilinish darajasi



Tahlillarimiz shuni koʻrsatadiki, ingliz va oʻzbek tillaridagi ertaklarda stilistik vositalarning qoʻllanilishi beqiyos. Kuzatishimiz natijasida chogʻishtirilayotgan ikki til ertaklarida qoʻllanilgan stilistik vositalarning aksariyati sintaktik stilistik vositalar, yaʼni qoʻshma gaplar orqali ifoda etiluvchi stilemlar ekaniga guvoh boʻldik.

Maʼlumki, adabiy asar material moddiy birlik emas, balki madaniy-maʼnaviy obrazlar tizimidir, yaʼni til verbal tasvir obʼektining tashqi jihatini yoritmaydi, aksariyat hollarda uning semantik, oʻzaro assotsiativ aloqalarini qayta tiklaydi. Poetik obraz jismoniy va aqliy, somatik va landshaft, zoomorfik va floristik kabi xilma-xil tarkibiy qismlardan iborat. Bularning barchasi ertak qahramonlarini tasvirlashda zarur boʻlgan badiiy yaxlitlik va haqiqatda mavjud boʻlmagan noreal ertak syujeti yaratishga imkon beradi. Ertak tilida bu funksiyani troplar yoki leksik badiiy-tasviriy vositalari bajaradi.

Ingliz va o'zbek ertaklarida badiiy-tasviriy vositalardan foydalanish darajasi



Demak, ertak chog'ishtirilayotgan har ikki tilda og'zaki yoki yozma folklor san'ati bilan bog'liq bo'lgan epik xarakterdagi maxsus janrni ifodalaydi. Asosan prozaik shaklda yaratilgan matn badiiy adabiyotga asoslangan bo'lib, lingvistik vositalar, obraz, personaj va qahramonlar tizimi orqali xalqning milliy o'ziga xosligini aks ettiradi. Ertaklardagi turli obrazlar, qahramonlar ma'lum bir millat madaniyatini o'zida mujassamlashtiradi. Bu esa chog'ishtirilayotgan tillarda o'ziga xos lingvokulturologiyani yorqin ifodasini tashkil etadi.

Dissertatsiyaning **“Sehrgarlik ertaklarida “sehr” va “sinov-shart” konseptlarining o'ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida lingvistikada konsept tushunchasi (“Harakatlar va jarayonlar” leksik-tematik guruhi. “Sehrgarlik buyumlari” leksik-tematik guruhi. “Sehrgarlar” leksik-tematik guruhi), ingliz va o'zbek tillari ertaklarida “sinov-shart” konseptining semantik tahlili, ingliz va o'zbek ertaklarida “sinov-shart” ma'nosining obrazlar vositasida ifodalanishi, ingliz va o'zbek ertaklarida “sinov-shart” ma'nosini ifodalashning lingvokulturologik jihatlarini o'rganilgan.

So'nggi o'n yillik ichida tilshunoslik ilmda ulkan tadqiqot ishlari olib borildi. Dastlab psixologiyaning asosini tashkil etgan kognitiv yo'nalish tez orada metatilshunoslik, madaniyatlararo muloqot, diskurs nazariyasi hamda lingvokulturologiya kabi tilshunoslikning ko'plab sohalariga kirib keldi. Matn sathida erishilgan kognitiv ilm-fan yutuqlariga, birinchi navbatda, badiiy adabiyotni o'rganish kiradi, qolaversa, biz bunga folklorning eng noyob namunasi bo'lgan ertaklar matni ustida olib borilgan tadqiqotlarni ham kiritishimiz mumkin. Ushbu turdagi tadqiqotlar esa, o'z navbatida, yangi lingvistik yo'nalish - kognitiv stilistikani yaratish uchun asos bo'lib xizmat qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuni ta'kidlash joizki, an'anaviy uslub diskurs tahlilida sof lingvistik nazariyalardan foydalangan. Kognitiv stilistika nuqtai nazaridan esa kognitiv struktura va jarayonlar yordamida lingvistik vositalarni tushuntirib beruvchi nazariyalarga asoslanadi. Olimlarning ta'kidlashicha, hozirgi paytda dunyo tobora ko'proq predmet-makon jihatidan emas, balki voqea-hodisalar jihatidan qabul

qilinmoqda. N. D. Arutyunovanning fikriga ko'ra, "atrofimizda sodir bo'layotgan hodisalar ontologiyasi leksik ma'lumotlarga ko'ra tuzilgan konseptlar tizimi shaklida modellashtirilgan" ¹⁷. Kognitiv tilshunoslikka berilgan yuqori baholardan biri sifatida J.Fokon'e fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Kognitiv lingvistikaning mana shunday yuqori muvaffaqiyatga erishishi, aftidan unda birinchi bor ma'no shakllanishi haqidagi fanni uning rivojlanishi bilan bog'lay boshladilar, lekin qadimgi zamonlardan qolgan tilga ma'noni shakllantiruvchi va ifodalovchi qurol sifatida yondashish kognitiv tilshunoslikda ham bo'lishiga qaramay, uning barcha tadqiqot metodlari va natijalari butunlay yangidir".

Tilshunoslikning ushbu zamonaviy yo'nalishida konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish jarayonlari ilgari suriladi.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan bo'lgan "konsept" tushunchasiga zamonaviy tilshunos olimlar tomonidan ko'p bora ta'rif berilgan.

Ye.S. Kubryakova "konsept – mental tuzilma bo'lib, u turli tarkib va ko'rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir" deb hisoblaydi. Modomiki, konsept ob'ektning muhim xususiyatlari to'plami bo'lsa, u holda konsept aqliy milliy o'ziga xos tuzilmadir, uning mazmuni ma'lum bir ob'ekt haqidagi barcha bilimlar yig'indisi bo'lsa, ifoda vositasi lingvistik birliklar to'plamidir (leksik, frazeologik va boshqa sathlardagi til birliklar) ¹⁸.

V.A. Maslovaning so'zlariga ko'ra, konsept hissiy, emotsional-ekspresiv, baho beruvchi so'z va u tomonidan ifoda etilgan tushunchaga hamroh bo'lgan yondosh g'oya, tushuncha, bilim va tajribalar "to'plami". Biroz boshqacha yo'sinda N.D. Arutyunova, konseptlarni "milliy an'ana va folklor, din va mafkura, hayotiy tajriba va san'at asarlari, hissiyotlar va qadriyatlar tizimlari kabi omillarning o'zaro ta'siri natijasida" paydo bo'ladigan amaliy (kundalik) falsafaviy tushunchalar deb izohlaydi ¹⁹.

Shuningdek, Sh.Safarov, D.Ashurova, O'Q.Yusupov, A.E.Mamatov, G'M.Hoshimov kabi o'zbek tilshunos olimlarining konseptlarning lingvokognitiv tabiati va tilni tizimli tahlil qilish, dunyoga oid bilimlarning verballashuv jarayonini kategoriyalashtirish borasidagi izlanishlari qizg'in muhokamaga sabab bo'lmoqda.

Tilshunos olim A.E.Mamatov bu borada o'zining qarashlarini bildirar ekan, har qanday verbal yoki noverbal til birligi kognitiv asosga ega, yani u yoki bu konsept bilan o'zaro uzviy bog'liq degan fikrni ilgari suradi, sababi ular muloqat uchun zarur bo'lgan ma'lum konseptlar (mikro, makro-, giper-/super-, yoki arxikonseptlar)ni voqealantirishga xoslangan bo'lib, og'zaki yoki yozma nutqda (muloqotda) biri ikkinchisini bevosita to'ldirib keladi ²⁰. Ushbu dissertatsiya ishining maqsadlaridan biri ertaklar tilida "sehr" hamda "sinov-shart" konseptlarini chuqur o'rganib, tahlil qilish, ularning konseptual-semantik guruhlarini shakllantirishdir. Bizning fikrimizcha, ushbu guruhlar sehr va ertakda sinov bilan

¹⁷ Н.Д.Арутюнова «Типы языковых знаний». Оценка. Событие. Факт.-М.1998, 102 с.

¹⁸ Е.С.Кубрякова Краткий словарь. Когнитивных терминов – М. Филологический ф-т МГУ им. М.Л.Ломоносова, 1997 – 245 с.

¹⁹ В.А.Маслова «Когнитивная лингвистика». Минск, 2004 – 245 с.

²⁰ А.Э. Маматов "Замонавий лингвистика" – Тошкент, 2019 – 80 бет.

bog‘liq barcha tushunchalarni o‘z atrofida birlashtiradi va lisoniy vositalar tizimi yordamida nutqda verballashuvi yordamida bayon qilinadi. Endilikda, xususan, “magic/sehr” konseptini tashkil etuvchi leksik birliklarni ko‘rib chiqamiz.

Biz tahlil qilgan ingliz tilidagi sehrli ertak matnlarida magic / sehr konsepti asosida sehrgarlik faoliyati bilan bog‘liq leksemalar tahlilida quyidagi chizmaga murojat qilsak.

Inglizcha	O‘zbekcha	Inglizcha	O‘zbekcha
Enchantment	Sehr, jodugarlik	By magic	Sehr bilan
Sorcery	Sehr	Spell /magic spell	Sehrli kukun
Witchcraft	Sehrgarlik, afsungarlik	Put a spell on	Duo o‘qimoq (biror kimga)
Witchery	Jodugarlik	Cast a spell on	Duo o‘qimoq (biror kimga)
Charms	Sehr, sehrli afsunlar	Flight / fly	Parvoz / uchish
To be under a charm	Sehrlanmoq	Miracle	Afsona
Magic	Magiya, sehr	Curse	Duo, la‘nat, qarg‘ish
Magic work	Sehrli kuch	Wish	Istak
Black magic	Qora magiya	Magical trick	Sehr-jodu
To perform magic	Fokus / afsun ko‘rsatmoq	In a whisper	Pichirlab
Fraud	Firibgarlik, qalloblik; soxta, qalbaki	Deception	Aldash
Deceit	Aldov, firibgarlik	Rise into the air	Havoga ko‘tarilmoq
Trickery	Nayrang	Wings	Qanotlar
Trick	Yolg‘on, hiyla-nayrang		

1-jadval: Ingliz ertak diskursida “sehr” (magic) konseptini voqelanish usullari

Sehr (arabchadan — joziba, fusunkorlik; sehrgarlik, afsun, jodu; jodugarlik) 1 G‘ayritabiyy kuchlar, sehrli afsun va duolar yordamida mo‘jiza yaratuvchi harakat va duolar; afsun, jodu. *Devlar buni sezib, sehr bilan bitta tayoqni dutorga, qovun po‘chog‘ini doiraga aylantirib, maftun qiluvchi kuy chalib, qo‘shiq ayta boshlabdilar. “Oltin beshik”. O‘g‘lingizning bu ishi bejiz emas: marg‘ilonlik sehr qildimi, jodu qildimi, haytovur siz shu yo‘sinda yura bersangiz, erta-indin o‘g‘ildan ajralasiz. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar. Deydilarki, sening ko‘zlaring Afsungarmish, sehr etarmish. R. Parfi, Ko‘zlar*²¹.

Bizning fikrimizcha, ushbu guruhlar sehr va ertakda sinov bilan bog‘liq barcha tushunchalarni o‘z atrofida birlashtiradi va lisoniy vositalar tizimi yordamida nutqda verballashuvi orqali bayon qilinadi. Xususan, “sehr” konseptini tashkil etuvchi leksik birliklarni ko‘rib chiqamiz.

²¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – B. 198.

*“There must be **witchcraft** in it; look out tomorrow morning early, and see if anything stirs about in the room; if it does, throw a white cloth at once over it, and then the **witchcraft** will be stopped²²”*. - Unda **jodugarlik** bo‘lsa kerak, erta tongda turib uni kuzating, agar xonada qandaydir tartibsizlik sezsangiz, darhol uning ustiga oq matoni yoping va shunda **sehr-jodu** to‘xtaydi.

Endi esa xuddi shu leksik birliklarning o‘zbek ertaklarida namoyon bo‘lishini tahlil qilamiz:

*“Podsho hayron bo‘lib: “Bu qanday **sehrgarlik**? Ham otdan ajraldim, ham qizdan,” – debdi²³”*.

Yoki:

*“Kanizak esa bu orada **sehr-jodu** yordamida qanot bog‘lab, daryoga etibdi va ko‘zani to‘ldirib, ortga – saroy sari uchibdi²⁴”*.

Yuqoridagi misollarda jodugarlik bilan shug‘ullanish **“witchcraft”** / **sehr-jodu** tushunchasi “sehr” konseptini tashkil etuvchi faoliyat-jarayon leksik-semantik guruhining tarkibiy elementi hisoblanadi.

Shunday qilib, ertak matnlarini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Harakatlar va jarayonlar” leksik-tematik guruhi ertakda sodir bo‘layotgan hodisalarni tavsiflovchi juda yirik leksemalar guruhini anglatadi.

Ma‘lumki, ertaklardagi sehrgarlik sahnalarida yoxud biror afsun, sehr-jodu yoki mo‘jiza ko‘rsatish jarayonida turli xil buyumlardan foydalaniladi. Bu esa chog‘ishtirilayotgan ingliz va o‘zbek tillarida o‘sha millatning urf-odati, udumlari va albatta o‘ziga xosliklarini taqozo etadi. Shu nuqtaiy nazardan, chog‘ishtirilayotgan ikki tildagi ertak matnida sehrli narsalarni aks ettiruvchi leksemalarning qiyosiy jadvaliga murojaat etamiz.

Ingliz	O‘zbek	Ingliz	O‘zbek
Magic wand	Sehrli tayoqcha	Fume	Tuman
Magical glass / mirror	Sehrli ko‘zgu	Music	Musiq
Magic book	Sehrli kitob	Broom	Supurgi
Magic cloak	Sehrli yopinchiq	Witch broom	Yalmog‘iz supurgisi
Magic carpet	Sehrli / uchar gilam	Lamp	Shamchiroq
Magic powder	Sehrli kukun	Lantern	Fonar
Magic words	Sehrli so‘z	Ring	Uzuk
Poison	Zahar	A wishing ring	Sehrli uzuk
Cauldron	Qozon	Thunder	Momaqalldiroq
Blood	Qon	Lightning	Chaqmoq
Liquid	Ilisir	Fairy-tale	Ertak
Silver powder	Kumush kukun	Legend	Afsona
Amulet	Ko‘zmunchoq	Fairyland	Sehrli olam / Mo‘jizalar

²² “Roland and May-bird” (Grimms’ Fairy Tales. Printed by Blackie & Son Limited. London and Glasgow. 244-6.)

